

INGLIZ TILIDAGI SLANG VA JARGON SO‘ZLARING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASIDA KREATIV YONDASHUVLAR

Toshtemirova Aziza To‘lqin qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

azizatoshtemirova11@gmail.com

*Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya
fakulteti ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

Ramazonov Shohruh Nusratillo o‘g‘li

rshakhrookh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi slang va jargon so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishida qo‘llaniladigan kreativ yondashuvlar tahlil qilinadi. Slang va jargonlar norasmiy nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ular madaniyat, yoshlar submadaniyati va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotda tarjimada yuzaga keladigan leksik va pragmatik muammolar hamda ularni hal etishning innovatsion usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘lar: ekvivalent, kontekst, funksional, adaptatsiya, kompensatsiya, transliteratsiya, semantik va pragmatik tahlil.

KIRISH

Zamonaviy ingliz tili kundalik nutqda slang va jargon birliklarga boy. Bunday birliklar nutqqa jonlilik, tabiiylik va emotsional rang bag‘ishlaydi. Ammo ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab bo‘lib, faqat so‘zma-so‘z tarjima bilan cheklanib qolmaydi. Tarjimondan ijodiy fikrlash, madaniy bilim va kontekstni chuqur tushunish talab etiladi.

Slang va jargon tushunchalari

Slang — norasmiy muhitda ishlatiladigan, ko‘pincha yoshlar nutqiga xos so‘zlar.

Jargon — ma‘lum kasb yoki ijtimoiy guruhga tegishli so‘zlar.

Misollar: cool-zo‘r bu slang hisoblanadi. Ghost someone - kimnidir e‘tiborsiz qoldirmoq slang.

Tarjimadagi asosiy muammolar

1. To'g'ridan-to'g'ri ekvivalent yo'qligi
2. Madaniy kodlarning farqliligi
3. So'zlarning tez eskirishi
4. Kontekstga bog'liqlik kuchli bo'lishi

Masalan: "This party was lit" — so'zma-so'z tarjimada ma'no yo'qoladi. Ijodiy tarjima:

"Bu bazm rosa zo'r bo'ldi"

Kreativ tarjima strategiyalari

1. Funksional ekvivalent topish

Slangning ta'sirini saqlash uchun o'zbek tilidagi jonli muqobillar ishlatiladi:

chill → dam olmoq, xotirjam bo'lmoq

2. Adaptatsiya (moslashtirish)

Madaniyatga mos shakl:

Netflix and chill → "unchalik jiddiy bo'lmagan yaqinlik"

3. Kompensatsiya usuli

Agar bir joyda hissiy rang yo'qolsa, boshqa joyda kuchaytiriladi.

4. Transliteratsiya + izoh

Ba'zi slanglar o'zbek tilida ham asl shaklda qoldiriladi:

crush → "crush (yoqtirgan odam)"

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ushbu tadqiqot sifat (qualitative) va tavsifiy-tahliliy (descriptive-analytical) yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi slang va jargon birliklarning o'zbek tiliga tarjimasida qo'llaniladigan kreativ strategiyalarni aniqlash va ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot dizayni

Mazkur ish qiyosiy tadqiqot dizayni asosida ishlab chiqildi. Ya'ni ingliz tilidagi slang va jargon so'zlar ularning o'zbek tilidagi tarjima variantlari bilan solishtirildi. Qiyosiy tahlil orqali leksik, semantik va pragmatik farqlar aniqlandi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Slang va jargon birliklarni manbalardan yig'ish
2. Ularni sematik guruhlariga ajratish
3. Tarjima variantlarini ishlab chiqish
4. Tarjima strategiyalarini aniqlash
5. Natijalarni tahlil qilish

Tadqiqot materiali

Tadqiqot materiali sifatida quyidagi manbalardan foydalanildi:

1. Zamonaviy ingliz seriallari va filmlar dialoglari
2. Ijtimoiy tarmoqlardagi post va kommentlar
3. Zamonaviy ingliz adabiyotidan olingan matnlar

Tanlama hajmi:

Tadqiqot uchun 100 ta slang va jargon birlik tanlab olindi.

Ular quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlandi:

1. Kundalik nutq slanglari
2. Internet slanglari
3. Yoshlar jargonlari
4. Kasbiy jargonlar

Bug-dastur xatosi, crash- tizim to'xtashi, debug- xatoni tuzatish, lag- sekin ishlash bularni barchasi internet ya'ni IT jargonlari

Deadline- oxirgi muddat, brainstorm- go'ya yig'ish, follow-up-qayta bog'lanish bular biznes va offis jargonlari ya'ni kasbiy.

OMO (on my own)- yolg'izman yoshlar o'rtasidagi jargon.

Ma'lumot yig'ish usullari

Tadqiqotda quyidagi ma'lumot yig'ish usullari qo'llanildi:

Kontent tahlil (Content analysis) – matnlardagi slang birliklarni aniqlash

Kontekstual tahlil (Context analysis) – so'zlarning kontekst ichidagi ma'nosini aniqlash

Korpus tahlili (Corpus-based analysis) – misollarni solishtirma tahlil qilish

Tahlil usullari

Tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilishda quyidagi usullar qo'llanildi:

Semantik tahlil — so'zlarning asosiy va ko'chma ma'nolari o'rganildi

Pragmatik tahlil — nutqdagi vaziyat, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar hisobga olindi

Qiyosiy tahlil — ingliz va o'zbek variantlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi

Tarjima strategiyalarini tasniflash — kreativ yondashuv turlari (adaptatsiya, kompensatsiya, izohli tarjima) ajratildi

Tadqiqot ishonchliligi (Validity and Reliability)

Natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun:

Har bir slang birligi kamida 2–3 ta kontekstda tekshirildi

Tarjima variantlari bir nechta manbalar bilan solishtirildi

Lingvistik mezonlar asosida baholandi

Tadqiqot cheklovlari (Limitations)

Tadqiqotda quyidagi cheklovlar mavjud:

Ba'zi slanglar vaqtinchalik va tez eskiruvchi bo'lgani sababli uzoq muddatli umumlashma qilish qiyin

Barcha ingliz shevalari bir xil darajada qamrab olinmadi.

Axloqiy tamoyillar (Ethical Considerations)

Tadqiqot davomida:

Manbalarga to'g'ri havola berildi

Mualliflik huquqi hurmat qilindi

Asl matnlar ma'nosi buzilmadi.

XULOSA

Ingliz tilidagi slang va jargon so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali lingvistik hodisa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday leksik birliklarni tarjima qilish faqat so'zma-so'z ekvivalent topish bilan cheklanib qolmay, balki ularning madaniy, pragmatik va emotsional xususiyatlarini ham chuqur hisobga olishni talab etadi.

Tarjimon nafaqat ikki til grammatikasi va lugʻat boyligini mukammal bilishi, balki ingliz tilida soʻzlashuvchi jamiyatning mentaliteti, kommunikativ uslubi, ijtimoiy konteksti hamda yoshlar submadaniyati haqida yetarli bilimga ega boʻlishi zarur. Slang va jargon birliklarning mazmuni koʻpincha madaniy fon va vaziyatga bogʻliq boʻlgani sababli, ularni oʻzbek tiliga moslashtirishda kreativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, Mona. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
2. Newmark, Peter. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
3. Nida, Eugene A. (1964). Toward a Science of Translating. Brill.
4. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.
5. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins.